

## MILLIY DINLARNING TARIXI VA KELIB CHIQISHI: VEDIZM

Ovlayorov Asilbek Anvar o'g'li <sup>1</sup><sup>1</sup> [asilbekovlayorov702@icloud.com](mailto:asilbekovlayorov702@icloud.com)MAQOLA  
MALUMOTI

## ANNOTATSIYA:

## MAQOLA TARIXI:

Received:04.04.2025

Revised: 05.04.2025

Accepted:06.04.2025

## KALIT SO'ZLAR:

Vedizm, konfutsiylik,  
Zevs-pantion, grek,  
vedalar, Dyaus,  
Varuna, Indra, Mitra,  
Surya, Savitri, Vishnu,  
Ashvina, Savitar,  
Rudna-Shivai,  
Panjaniya, Agnidir,  
Ushas, Sarasvati,  
Rigveda, Atxarvaveda.

*Ushbu maqola milliy dinlarning kelib chiqishi tarixi va rivojlanish bosqichlari borasida ma'lumotlar beradi. Dunyoda qanday milliy dinlar mavjud va asosan ko'plab aholi qaysi dinlarga e'tiqod qilishgan. Milliy dinlarning o'ziga xos jihatlari va ularning bir-birlaridan farqlari. Shu bilan birgalikda ikki milliy dinlar bular Qadimgi Hindistonda vujudga kelgan va rivojlangan vedizm, shuningdek Qadimgi Xitoyda Konfutsiy asos solgan va shu nom bilan atalgan milliy dinlardan biri konfutsiylik to'g'risida mulohaza va malumotlar beriladi. Bulardan ushbu milliy dinlarning hozirgi zamonaviy dunyoda o'rni hamda, hind va xitoy xalqida ularning e'tiqodchilari qanchaligi ham yoritiladi.*

**KIRISH.** Milliy dinlar — bu ma'lum bir millat yoki xalqning madaniyatiga, tarixi va an'analariga asoslangan diniy tizimlar bo'lib, ular o'ziga xos e'tiqodlar, rituarlar, qadriyatlar va amaliyotlar bilan ajralib turadi. Milliy dinlar ko'pincha ma'lum geografik hududlar bilan bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishi va tarqalishi o'sha hududdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillarga bog'liq. Ushbu yuqorida ta'kidlangan sabablar orqali dinlar vujudga kelishi, rivojlanishi tarqalishi mumkin. Shu asnoda o'sha hudud aholisi dinga e'tiqod qilishni boshlashadi. Dastavval din atamasini anglab olish muhim hisoblanadi. Din bu insonlarning ruhiy, axloqiy va ma'naviy hayotini tartibga soluvchi, ularga ma'lum bir e'tiqod, qadriyatlar tizimi va rituarlar orqali ma'naviy jihatdan yo'naltiruvchi tizimdir. Tarixga yuzlanganda

ko'rish mumkinki, din har bir hudud fuqarolari uchun hayotini belgilab beruvchi narsa bo'lgan. Shuningdek uchbu atamani chuqurroq ta'riflanadigan bo'lsa, din so'zi arab tilidan olingan bo'lib uning lug'aviy ma'nosi "ishonch", "e'tiqod"dir. Istilohiy ma'nosi lotin tilidagi "religion" so'zi bilan mos keladi [1]. Din insonni qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni va koinotdagi barcha narsalarni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy borliqqa ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyan bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks ettirishdir. Mantiqan davomi sifatida milliy dinlar to'g'risida to'xtalib o'tilsa, milliy dinlar—o'z mazmun-mohiyati bilan asosan bir millatga mansub xalqlar e'tiqod qiladigan dinlardir. Milliy dinlar shakllanishining dastlabki va eng so'nggi davrlarini bir-biridan farqlash lozim. Dastlabki Milliy dinlar quldorlik jamiyatida vujudga kelgan bo'lib, odatda, politeistik, ya'ni ko'p xudolik dinlari bo'lgan. Masalan, qadimgi grek dini ko'p xudolikning o'zginasidir. Zevs-pantion (qadimgi grek tilida – bosh xudo) hisoblanib, bir ukasi dengiz xudosi, ikkinchi ukasi – yer osti podsholigining xudosi hisoblanar edi. Shuningdek, muhabbat va go'zallik ma'budasi, urush xudosi xudosi, quyosh xudosi va san'at homiysi va boshqa yana bir qancha xudolar bo'lgan. Quldorlik jamiyatidagi dastlabki Milliy dinlarning o'ziga xos yana bir xususiyati oxirat to'g'risidagi tasavurning paydo bo'lishi va unga ishonishidir. Ammo bu davrda bunday tasavvurlar hali to'la shakllanmagan edi. Ular keyingi davrlarda rivojlangan. Bu davrda qurbonlik qilish keng rasm bo'lib hatto majburiy marosimlardan biri hisoblanar edi [2]. Shuningdek, milliy dinlardan vedizm va konfutsiylik ham hisoblanadi.

Mill. avv. 2-ming yillik o'rtalarida Hindistonning shimoliy-g'arbiy qismiga, hozirgi Panjob hududiga g'arbdan Hindikush dovoni orqali o'zlarini oriylar deb atagan jangari xalqlar bostirib kela boshladilar. Bu xalqlar Eronga ko'chib kelgan qo'shni qabila tillariga juda yaqin bo'lgan, hind-yevropa tillaridan kelib chiqqan tilda gaplashar edila. Harbiy jihatdan katta mahoratga ega bo'lishlari bilan birga she'riyatga ham usta edilar. Shu yo'l bilan ular bu mintaqada mavjud dunyoqarashni o'zlari xohlagan tarafdagi o'zgartira olardilar. Ular o'zlari bilan muqaddas yozuvlari - Vedalar (sanskrit. - muqaddas bilim)ni ham olib kelgan edilar. Shu tariqa vedizm ham shakllanishi boshlanadi. Uning shakllanishi va diniy e'tiqodlar paydo bo'lishi birmuncha muddatni qamrab olgandi. Shuningdek, barcha dinlar o'z e'tiqodlari va xudolariga ega bo'lganidek, vedizm ham mavjuddir. Vedizm ta'limotida butun tabiatning ilohiyligi haqidagi ta'limot ilgari suriladi. Shundan kelib chiqib

aytish mumkinki, Hindiston ko'pxudolikni o'chog'i hisoblanadi. Undagi tasavvurlarda biri ikkinchisidan yuqori bo'lgan, ikkinchisi, aksincha pastroq bo'lgan qator ilohiyotlar siymosi namayon bo'ladi. Biroq bu darajalar to'xtovsiz almashinib turadi. Ilohiyotlar orasida "eng ulug'i eng kichigi, eng qarisi, eng yoshi" bo'lmay ular barchasi ulug'likda tengdir. Eng yuqori hokimiyat ham ko'pchilikka tegishli. Bir vaqtning o'zida bir xudo butun borliqning hukmdori bo'lishi va shu bilan birga u ikkinchi bir xudoga tobe bo'lishi mumkin. Shu jumladan, vedizm milliy dinida ham o'ziga xos xudolar mavjud deb e'tiqod qilishadi. Bular Dyaus, Varuna, Indra (Varuna keyinchalik suv va dengizlar xudosi aylanib ketgan) quyosh xudolari Mitra, Surya, Savitri, Pushing, Vishnu, havo xudolari Ashvina va Savitar nomi bilan ataluvchi ikki tong xudosi Indra, Rudna-Shiva bundan tashqari, Panjaniya yomg'ir xudosi, shamol xudosi Vayular vedalarda aniq tasvirlanmagan. Yer xudolari Agni (yer xudolarining eng ulug'i yerda quyoshning, havoda chaqmoqning yer ustida olovning mujassamlashuvi hisoblangan olov xudosi Agnidir) ayol xudolar Tong va tong nuri ma'budasi Ushas, daryo xudosi Sarasvati (Sarasvati keyinchalik braxmanizmida so'z xudosi sifatida tasvirlangan.) [3].

Veda ibodatlar ham mavjud bo'lib, ular ikki xil hisoblanadi. Ular birinchisi dullar, ikkinchisi xudolarga atab qilinadigan qurbonliklar yoki boshqa bir narsalarni taqdim qilishdir. Dastavval duo kitoblari bo'lmagan paytda ibodatlar faqat qurbonliklar shaklida amalga oshirilgan. Unda ma'budlarga kuydirilgan moy, non va nihoyat, suv yoki sut bilan aralashtirilgan soma ichimligi tortilgan [4]. Keyinchalik Rigveda, Atxarvaveda kabi madhiya va duolarni o'zida jamlagan kitoblar paydo bo'lgach, ibodatning ikkinchi ko'rinishi – xudolarga atab duo va madhiyalar o'qish odat tusiga kirgan. Masalan inson bir narsaga muhtoj bo'lsa, xudoga qurbonlik qila turib undan o'z ehtiyojini qondirishni so'ragan. Vaqt o'tishi bilan bu marosimlar murakkablashib borgan. Qurbonlik banda bilan xudo o'rtasidagi savdo, kelishuv ma'nosida qabul qilingan. Shuningdek, hayvonlar (masalan, ot) ham qurbonlik qilingan.

Vedizmida ham o'ziga xos bir qancha yozma manbalar mavjud bo'lgan. Bular vaqtlar o'tib ham shakllanib borgan. Aslida, Hind adabiyoti juda boy, 3 yarim ming yillikdan ortiq tarixga ega. Vaqt o'tishi bilan undan anchagina qismi umuman yo'qolib ketdi. Ammo bu adabiyotning boshlanishi vedalardir. Bu boshlanish bo'sh, sayoz bo'lmay, aksincha juda ham puxta va ajoyib edi. U keyinchalik o'z o'rnida katta daryolar paydo bo'lgan kichik irmoqni emas, balki ulkan dengizni eslatadi. U doimo asos-manba bo'lib qolaveradi. Albatta Rigvedadan oldin qandaydir boshlanish bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin biz bu haqida hech narsa bilmaymiz. Rigveda o'z sohasida nafaqat eng ko'zga ko'ringan kitob, balki

Hindistonning o'sha davr voqealari haqida xabar beruvchi noyob manba hamdir. Vedalar tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir necha kitoblar kirgan bo'lib, ular o'z ichiga ibodat, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy xabarnomalarni olgan edi. Vedalar 4 yirik to'plamdan iborat: bular, Rigveda - madhiyalar vedasi, Samaveda- qo'shiqlar vedasi, Yajurveda - qurbonliklar vedasi, Atxarvaveda - afsun va jodular vedasi.

Xulosa qilib aytganda, milliy dinlar rivoj topishi anchayinuzoq tarixga ega. Shu jumladan vedizm ham o'ziga xos tarixi e'tiqodlar va xudolar bilan boshqa milliy va jahon dinlaridan farqlanib turadi. Eng farqli tomonlaridan biri bu Hind falsafasining klassik maktablariga ko'ra, shaxsning bu hayotda o'zini rivojlantirish usuli Yoga amaliyoti orqali amalga oshiriladi deb fikr yuritishidir [5]. Aynan shu kabi o'ziga xos jihatlari orqali din qaror topdi va yillar mobaynida aholi shu dinga e'tiqod etishdi. Hozirgi zamonaviy dunyoda ham vedizm hinduizmni bir bo'lagi sifatida mavjud va unga Hindiston, Nepal va Bagladesh kabi davlarda e'tiqod qilishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Milliy\\_dinlar](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Milliy_dinlar)
2. DINSHUNOSLIK SEMINAR MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH BO'YICHA USLUBIY QO'LLANMA. BUXORO – 2016
3. O'sha manba
4. O'sha manba
5. HINDU PHILOSOPHY By THEOS BERNARD, PH.D. PHILOSOPHICAL LIBRARY COPYRIGHT, 1947, BY THE PHILOSOPHICAL LIBRARY, INC. I 5 EAST 40TH STREET, NEW YORK, N. Y. PRINTED IN THE UNITED STATES OF AMERICA. 7-8-b